



O'zbekiston ekovolontyor talabalari harakati KONSEPSIYASI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston ekovolontyor talabalari harakatining asosiy maqsadi talabalar o'rtasida ekologik ong va madaniyatni yuksaltirish, ularni ekologik volontyorlik asosida ijtimoiy faollikka undash, mamlakat miqyosidagi ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va ularni amaliy faoliyatga jalb etish hisoblanadi.

2. O'zbekiston ekovolontyor talabalari harakati – yurtimizdagi har bir oliy ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladi.

3. O'zbekiston ekovolontyor talabalari harakatining oliy ta'lim tashkilotlaridagi faoliyati jamoatchilik asosida yo'lga qo'yiladi.

4. O'zbekiston ekovolontyor talabalari harakatining asosiy vazifalari:

Talabalar va yoshlar orasida ekologik ong, mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

Atrof-muhit muhofazasi, chiqindilarni qayta ishlash, suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, seminar va treninglar tashkil etish;

Ekologik tadbirlar - "Yashil hudud" yaratish, daraxt ekish, tozalash aksiyalari, ekologik marafonlar, eko-festivallarni o'tkazish;

Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali aholining ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan axborot kampaniyalarini amalga oshirish;

Ekologiya sohasi bo'yicha tajribali mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar bilan uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil qilish;

Talabalarning ekologik loyihalarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion va tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlantirishga ko'maklashish;

Hududiy va xalqaro ekologik tashkilotlar, davlat idoralari va nodavlat sektor bilan hamkorlikni mustahkamlash.

3-bob. Harakatga a'zo bo'lish

5. O'zbekiston ekovolontyor talabalari harakatiga oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat hamda magistratura bosqichi talabalari ixtiyoriylik asosida jalb etiladi.

6. O'zbekiston ekovolontyor talabalari harakatiga a'zo bo'lish uchun maxsus platforma orqali ariza qoldiriladi.

7. O'zbekiston ekovolontyor talabalari harakati a'zolariga maxsus guvohnoma hamda belgi taqdim etiladi.

8. O‘zbekiston ekovolontyor talabalari harakati a‘zolariga quyidagi imtiyozlar beriladi:

Oliy ta‘lim tashkilotlarida ekologik tadbirlarni tashkillashtiradi;

Talaba va xodimlar orasida ekologik targ‘ibot olib boradi;

Ekologik monitoringda ishtirok etadi;

Oliy ta‘lim tashkilotlarida tavsiyanomalar, faxriy yorliqlar bilan taqdirlash, xorijiy safar yoki stajirovkalarga tavsiya etiladi.

4-bob. Harakat faoliyatini moliyalashtirish

9. O‘zbekiston ekovolontyor talabalari harakatining asosiy vazifalarini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlari oliy ta‘lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ichki moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

10. O‘zbekiston ekovolontyor talabalari harakati faol a‘zolarini ularning faoliyat natijalaridan kelib chiqqan holda rag‘batlantirish ishlari tahsil olayotgan oliy ta‘lim tashkilotlari rektorlari va filial direktorlari tomonidan ichki moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

11. Mazkur Konsepsiya asosida O‘zbekiston ekovolontyor talabalari harakatining faoliyati oliy ta‘lim tashkilotlarida jamoatchilik asosida, ixtiyoriylik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

12. Harakat faoliyati doirasida amalga oshiriladigan barcha tashkiliy, targ‘ibot, ekologik va ijtimoiy tadbirlar oliy ta‘lim tashkilotlari rahbariyati bilan hamkorlikda, belgilangan ichki tartib-qoidalarga muvofiq olib boriladi.

13. Harakatning respublika darajasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Ekologiya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

14. Harakat faoliyatida ishtirok etuvchi talabalar har qanday shakldagi majburlash, bosim yoki majburiy jalb etilishdan himoya qilinadi. A‘zolik to‘liq ixtiyoriy va bepul hisoblanadi.

15. Mazkur Konsepsiyada nazarda tutilmagan masalalar yuzasidan qarorlar amaldagi qonunchilik, vazirlikning tegishli hujjatlari va oliy ta‘lim tashkilotlarining ichki tartib-qoidalari asosida hal etiladi.

16. Harakat faoliyati natijalari bo‘yicha monitoring, tahlil va baholash ishlari Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli bo‘linmasi tomonidan har yil yakunida amalga oshiriladi va zarur hollarda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining roziligi bilan Konsepsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.